




Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-iyun oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,5 % o'sdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 29,9 foizni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 129,9 % ga o'sdi.




2019 yil yanvar-iyun oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)

2018 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Olmazor tumani 124,5, Yakkasaroy tumani 120,5%, Shayxontohur tumani 114,7 %, Sergeli tumani 108,4 % Yunusobod tumani 107,6%, da qayd etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda, jumladan, Chilonzor tumani 102,5%, Bektemir tumani 101,1% hamda Uchtepa tumani 100,1% nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 929,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 127,8 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

Tumanlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



● Uchtepa ● Bektemir ● Yunusobod ● Mirzo-Ulug'bek ● Mirobod ● Shayxontohur
● Olmazor ● Sergeli ● Yakkasaroy ● Yashnobod ● Chilonzor

Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Yunusobod 19,9 %, Shayxontohur tumani 12,2 %, Yakkasaroy tumani 10,7 %, Sergeli tumani 10,1 %, tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod tumani 6,1 %, Uchtepa tumani 5,4 % va Bektemir tumani 1,8 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyun

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 26,1 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (16,6 %), Shayxontohur tumani (11,7 %), Yunusobod tumani (11,5 %) va Uchtepa tumani (9,3 %), bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir etdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (jamiga nisbatan, foizda)



● 2019 yanvar-iyun



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyun

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 7006,0 ming. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (40007,3 ming.so'm), Chilonzor tumani (12085,10 ming.so'm), Yakkasaroy tumani (10397,80 ming.so'm), Mirobod tumani (10701,30 ming.so'm) Uchtepa (6139,50 ming.so'm), kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


| | Ming so'm | O'sish sur'ati |
|--------------------|-----------|----------------|
| Toshkent sh | 7 006,0 | 105,4 |
| Uchtepa | 6 139,5 | 99,0 |
| Bektemir | 40 007,3 | 99,1 |
| Yunusobod | 6 097,9 | 105,5 |
| Mirzo- Ulug'bek | 4 024,4 | 105,7 |
| Mirobod | 10 701,3 | 105,0 |
| Shayxontohur | 6 120,5 | 112,5 |
| Olmazor | 3 380,5 | 122,3 |
| Sergeli | 8 199,7 | 103,8 |
| Yakkasaroy | 10 397,8 | 119,3 |
| Yashnobod | 4 677,4 | 96,9 |



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyun

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, foizda)




2019 yil yanvar-iyun oyida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo'yicha aholi jon boshiga 7006,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,4 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyun oyida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sgan Olmazor tumani 122,3 % Yakkasaroy tumani 119,3 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 105,7 %, va Mirobod tumani 105,0 % tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Bektemir tumani 99,1 %, Yashnobod tumani 99,1 % qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyun

Kichik korxonalar va Mikrofirmalar ulushi (jami chakana savdo aylanmasidan)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo'lgan tumanlar: Yunusobod tumani (52,7 %), Mirobod tumani (51,7 %), Sergeli tumani (51,5 %), Mirzo-Ulug'bek tumani (45,0%). Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkichlarga ega tumanlar, Uchtepa tumani (22,2%) Bektemir tumani (13,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



2019 yil yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo

2019 yil yanvar-iyun oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 18262,9 mlrd. so`mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar 12548,8 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,3 % ni tashkil qildi.






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyun

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p ulushga ega tumanlarga Uchtepa tumani (97,6%), Shayxontohur tumani (97,1 %), Mirzo-Ulug'bek (95,9 %), Mirobod tumani (95,4 %) va Bektemir tumani (95,1 %), eng past ulush esa Yakkasaroy tumani (74,5%) Olmazor tumani (75,8 %) va Sergeli tumani (74,7 %), to'g'ri kelgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi jami savdoga nisbatan (%)






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyun


Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Mirzo-Ulug'bek tumani 13,0 %, Olmazor tumani 12,7 %, Yakkasaroy tumani 12,9 %, Mirobod tumani 11,3 %, Chilonzor tumani 10,9 % tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Bektemir tumani 1,5 %, Uchtepa tumani 5,1 %, Sergeli tumani 7,5 %, Yashnobod tumani 7,9 jamiga nisbatan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulgurji tovar aylanmasidagi jamiga nisbatan ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Mirzo-Ulug'bek tumani 12,7 %, Yakkasaroy tumani 11,7 %, Olmazor tumani 11,4 %, Mirobod tumani 12,2 % Chilonzor tumani 11,4 %, hamda eng kam ko'rsatkichni Bektemir tumani 1,7 % qayd etgan.




Umumiy tovar aylanmasining 6865,8 mlrd so'mi yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga tog'ri keladi. 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,3 % ga kamaydi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 38,9 % ga teng bo'ldi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda)
tarkibi, foizda
(2019 yanvar-iyun holatiga)**

Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar 38,9


Kichik korxonalar 35,0

Yirik korxonalar 26,1





Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (jami chakana savdodagi ulushi)






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


2019 yil yanvar-iyun

Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (tumanlarning ulushi)





Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)




Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Yakkasaroy tumani 19,0 %, Olmazor tumani 18,8 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 14,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Uchtepa tumani 0,7 % Bektemir tumani 0,5 % Shayxontoxur tumani 1,6 % ko'rsatkichlarni qayd etdi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Chilonzor tumani 24,8 %, Yakkasaroy tumani 13,8 %, Shayxontohur tumani 11,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda Bektemir tumani 1,2 % Uchtepa tumani 3,8 % Mirzo-Ulug'bek tumani 5,7 % eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakillari

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakillari bo'yicha quydagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 44,3 mlrd so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,6 % ni tashkil etadi.

Nodavlat mulki 7336,1 mlrd so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,4 % ni ashkil etadi.

Davlat va nodavlat shakillari






Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi 2016 yilga nisbatan 9016,6 mlrd so'mni, 2017 yilga nisbatan 7047,8 mlrd so'mni 2018 yilga esa 3059,1 mlrd so'mni tashkil qildi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (2019 yil yanvar-iyun mlrd so'm)





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyun



TOSHSTAT

Ташки иқтисодий фаолият ва
савдо статистикаси бўлими